

NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING CHET TIL O'RGANISHGA BO'LGAN EHTIYOJLARI VA TIL O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Sidikova Shohsanam Shoilhom qizi

International Digital University, o'qituvchi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti, tayanch doktorant

E-mail: shohsanamsidikova0610@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada nofilologik ta'lism yo'naliishida tahsil olayotgan talabalarining chet tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlari hamda ushbu jarayonning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida talabalar til o'rganishda duch keladigan muammolar, ularning kasbiy ehtiyojlari va motivatsiyasi asosida til o'qitish metodikasi moslashtirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Nofilologik yo'naliish talabalarining til o'rganishga yondashuvi filologiya yo'naliishidagilardan farq qilishi, ular uchun til – aloqa vositasi sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlikning muhim qismi ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, samarali ta'lism jarayoni uchun kommunikativ yondashuv, kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Maqolada o'quvchilarning individual va yoshga doir xususiyatlarini inobatga olish orqali chet tilini o'qitish samaradorligini oshirishga doir takliflar ham berilgan.

Kalit so'zlar: til, muloqot, ingliz tili, talaba, o'qituvchi, kompetensiya, o'qitish, baholash, xalqaro me'yori, pedagogika

I. KIRISH

So'nggi yillarda ingliz va boshqa xorijiy tillarni chuqur o'rgatish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. BMTning "Ming yillik deklaratsiyasi" (2000-y.), "Tillar uchun Yevropa standarti: o'qish, o'qitish va baholash" (2005-y.), "Ta'lim – 2030: umr bo'yi umumiy inklyuziv va adolatli sifatli ta'lism berish va o'qitishni ta'minlash", Inchxon (2015-y.), shuningdek, Bolonya deklaratsiyalari g'oyalari, bo'lajak chet tillari mutaxassislarini tayyorlashda ustuvor bo'lgan CEFR (Common European Framework of Reference for Language) malaka talablari etnik madaniy aloqalar faollashuvi sharoitida talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. BMTning "Ming yillik deklaratsiyasi" doirasida 2014-2021-yillar uchun mo'ljallangan "O'rtacha tezlik strategiyasi" ("Medium-Term Strategy for 2014-2021")da esa mazkur davrda o'qitish jarayonini chet tilini o'rganishga bo'lgan o'ziga xos xususiyatlari, chet tillarni o'qitish vositalari va usullarini o'rganish ta'lim jarayonida raqamli integrativ ta'lism texnologiyalaridan foydalanish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Yetakchi xorijiy davlatlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot-ishlarida etnik madaniy aloqalar faollashuvi sharoitida talabalarining ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish; shaxslararo muloqotda ularning imkoniyatlaridan foydalanish, muloqot vositasida ijtimoiy subyektlarda tolerantlikni rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Samarali natijalarga erishishga yo'naltirilgan me'yoriy hujjatlar, xususan, "Rossiyada kasbiy ta'lim: o'tmish an'analari va istiqbollari", "Erasmus+" (2014-y.) dasturlari, Qozog'iston Respublikasining "Bolashak" xalqaro dasturi, shuningdek, Bolonya shartnomasi mamlakatlarining ta'lim forumi negizida turli ta'lim muassasalari o'rtaida bilimlar va talabalarni almashish, standartlarni takomillashtirish, ta'lim maqsadlariga erishish

bilan bog‘liq yutuqlar sohasidagi taraqqiyot monitoringini amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda chet tillarni o‘qitish tizimi sifatini xalqaro standartlarga muvofiq tarzda takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilayotgani mazkur tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilab beradi. Oliy ta’lim tizimida nofilologik ta’lim yo‘nalishlariga chet tillarini o‘rgatish Yevropa Kengashining “Chet tilini egallah umumevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish va baholash”ning xalqaro me’yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference) tadbiq etilayotganligi ham o‘z navbatida talabalarda faol muloqot muhitini yaratish asosida ularning muloqot madaniyatini rivojlantirishga erishish imkonini beradigan pedagogik shart-sharoitni hosil qiladi. Shunga ko‘ra, OTMga kirishda CEFR va IELTS (International English Language Testing System) sertifikatlarining mavjudligini inobatga olish joriy etildi. “yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish”¹¹⁰ ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ushbu vazifani hal etish doirasida ingliz tili ta’limi sifatini yaxshilash, o‘qitish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribalarni chet tillarni o‘qitishning xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘rganish hamda milliy kontekstda o‘rganilayotgan tilda o‘rgatish metodik tizimining hozirgi holatini tahlil qilish nofilologik OTM talabalarining ingliz tili savodxonlik darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

II. ASOSIY QISM

Yangi O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat davlatlari bilan biznes va madaniy aloqalarni kengaytirilishi, kasbiy faoliyatda chet tilini biladigan mutaxassislarga bo‘lgan talabni yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda kasbiy rivojlanishning eng muhim jihatiga aylangan xorijiy tillarni bilish O‘zbekistonning Boloniya ta’lim tizimi jarayonlarida ishtiroy etish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Chet tillarini bilish kelajakda mutaxassislarning xorijiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Mutxassislik bo‘yicha adabiyot bilan ishlash o‘z ichiga matn mazmunini tushunish, tanqidiy baholash, mushohada yuritish, umumlashtirish, tahlil qilish va ishonchlilagini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Chet tillarida muloqot qila olish universitet bitiruvchisiga kasbiy muhitda o‘z bilim va ko‘nikmalaridan samarali foydalanishga tayyorgarligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonning jahon bazoriga kirib borishi, korxona va tashkilotlarning xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtiroti oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yilayotgan talablarni oshirmoqda. Xalqaro kasbiy muloqotning kengayishi, xorijiy hamkorlar bilan ishlash, muzokaralar olib borish, xorijiy tilga tarjima qilinmagan texnik hujjalalar bilan ishlash, chet elda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash kabi jarayonlarning rivojlanishi oliy ta’lim tizimi bitiruvchilarida chet tilini bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Davlat ta’lim

¹¹⁰ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent; O‘zbekiston nashriyoti, 2017 . - B-22.

standartlariga ko‘ra, har qanday soha mutaxassislari chet tilida og‘zaki va yozma muloqotni amalga oshirishga qodir bo‘lishi kerak. Ya’ni xorijiy hamkorlar bilan samarali muloqotga tayyor bo‘lishi lozim.

Global iqtisodiy integratsiya va o‘zaro bog‘liqlik sharoitida, ko‘p tomonlama xalqaro hamkorlik va qo‘shma tashabbuslar zarur bo‘lib qolgan davrda, zamonaviy kasblar uchun eng dolzarb kompetensiyalardan biri bu chet tilini yuqori darajada bilish bo‘lib, Yangi O‘zbekiston va xalqaro mehnat bozorida kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida xorijiy tillarni bilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish talablarining qo‘yilishi nofilologik ta’lim yo‘nalish talabalari orasida til bilish darajasining ko‘tarilishi va hattoki nomutaxassis ta’lim yo‘nalish talabalariga mutaxassislik fanlarini chet tillarida o‘qitilishi va bu borada xorijiy olimlarning jalb qilinishi ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘tariloytganidan darak beradi. Nomutaxassis yo‘nalishlariga chet tili fani kommunikativ yo‘naltirilgan va kasbiy mazmundagi dars hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi-kasbiy kompetentlarni egallashda chet tilini bilish ko‘nikmasini rivojlantirish va muloqot qila olish kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat.

Rossiyalik pedagog olimlardan G.Y.Tatur o‘zining ilmiy tadqiqotlarida oliy ta’lim tizimida kompetensiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi. Oliy ta’lim tizimida mutaxassisning kompetensiyasi- bu uning bilim, ko‘nikma, tajriba, shaxsiy sifatlar va boshqa salohiyatini kasbiy va ijtimoiy faoliyatida samarali, ijodiy amalga oshirishga intilishi va qodirligi, bu faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglash va javobgarlikni his qilish, doimiy rivojlanishiga tayyor bo‘lishdir¹¹¹.

Ilmiy tadqiqot ishlarining rivojlanishi xorijiy tillarni bilish darajasi va nomutaxassis yo‘nalish talabalari orasida chet tillarini bilish kompetensiyasini oshirish bo‘yicha tadqiqotlari davomida N.A. Grishaxova oliy ta’lim tizimida kompetensiyasini quyidagi turlarga ajiratib ko‘rsatgan:

- Malaka talablariga muvofiq, ravishda kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bilim ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi;
- Mustaqil tarzda muammolarni hal qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi ;
- Shaxsiy va kasbiy sharoitda hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- Bilim qobiliyat va munosabatlarni zamonaviy ishlab chiqarish muhitida optimal tarzda uyg‘unlashtirish;
- Turli kontekslarda o‘zini – o‘zi baholash va tahlil qilish asosida samarali ish faoliyatiga ega bo‘lish¹¹².

Ta’lim tizimiga xorijiy tillarning joriy etilishi va rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, yevropa davlatlari ta’lim tizimiga moslashtirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Bu tayyorgarlik an’anaviy tildagi emas, balki xilma xil madaniyatlar va tillar, milliy ta’lim tizimidagi bilimlarni o‘z ichiga olishi zarur. Bu esa

¹¹¹ Татур, Ю.Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стандартов высшего профессионального образования: Материалы ко 2-му заседанию методол. семинара: авторская версия. М.: Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. 16 с.

¹¹² Гришахова, Н.А. Компетентностный подход в обучении взрослых // Материалы к 3-му заседанию методологического семинара, 28 сент. 2004 г. / Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов. М., 2004. С. 16

Yevropa oliy ta'lim makoniga moslashish va jahon reytingiga O'zbekiton oliy ta'lim muassasalarini ham kiritish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Chet tillarini o'rganishda asosiy muammo bu kommunikativ kompetensiya masalasıdır. Agar til kompetensiyasi tilning grammatikasi, lug'ati va grammatik jihatdan to'g'ri gap tuza olish qobiliyatini anglatsa, kommunikativ kompetensiya –tilni samarali muloqot vositasi sifatida qo'llay olish-mantiqli va uzviy diolog yurita olish ko'nikmasini o'z ichiga oladi¹¹³.

Oliy ta'lim bitiruvchilarining kasbiy kompetensiyaga egaligi doirasida chet tilini bilish darajasi hamda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish orqali til bilish va muloqot qilish qobliyatlarini yanada rivojlantirishga erishish mumkin. Oliy ta'lim tizimida nofilologik ta'lim yo'nalişlariga ingliz tilini o'rganish talabining joriy etilishi ESP (English for specific purposes)¹¹⁴ ya'ni egallab turgan kasbini rivojlantirish maqsadida ingliz tilini o'rganishni nazarda tutadi. Bu esa ilm fanda maxsus maqsadlar qo'yish va natijaga erishish uchun sharoit yaratib beradi.

Yangi ta'lim modelining kirib kelishi ingli tilini xalqaro muloqot vositasi sifatida o'rganishga motivatsion yondashuvni joriy etilishi natijasida Boloniya dekloratsiyasi tamoyillariga ko'ra talabalarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqilligini ta'minlash zarur. Bu esa axborot bilan doimiy ishslash o'quv materiallarini tushunish, o'quv materillari mazmuni va shaklini tahliliy yondashuvlar asosida qayta tashkil etishni talab qiladi. Bunday materiallar yuqori texnologiyalarga asoslangan axborot muhiti va multimedaviy o'quv-uslubiy majmualar shaklida bo'ladi.

Til, xususan chet tilidagi muloqot jarayoni murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni faqat gapning mantiqiy va grammatik tuzilmasini, leksik mazmunini tushunish orqali to'liq o'rganib bo'lmaydi. Muloqotda ishtirok etish ko'proq bilim – ya'ni kommunikativ kompetensiyani, boshqacha aytganda, muloqot, xatti-harakatlar qoidalarini bilishni talab etadi.

Kommunikativ yondashuv talabalarda tirik, real tilni amaliy jihatdan ishlata olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. U til vositalarini mexanik ravishda qo'llash emas, balki ularning funksional mazmunini anglagan holda ishlatishni o'rgatadi. So'nggi vaqtarda mahalliy va xorijiy metodistlar tilni qo'llash bilan bog'liq muammolar, tilning aniq muloqot vaziyatlarida qanday ishlatilishini o'rgatish zarurligi masalasiga alohida e'tibor qaratishmoqda. Bu esa, o'z navbatida, talabalardan o'rganilayotgan til xalqining muloqot odatlari va madaniy qadriyatlari bilan tanish bo'lishni talab etadi. Boshqacha aytganda, muloqotiy xatti-harakatlar milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir xalq o'zining o'ziga xos muloqot normalariiga ega va bu normalarni bilish muloqot ishtirokchilariga bir-birlarini to'g'ri tushunish imkonini beradi. Aksincha, ushbu normalarni bilmaslik "madaniyatlar to'qnashushi" (culture shock) holatiga olib keladi.

Amerikalik tilshunos olim V. Rivers chet tilini o'rgatish jarayoni haqida shunday yozadi: "Talabalar o'zlarining xatti-harakat modellari va qadriyat tizimidan farq

¹¹³ Фёдорова, Л.Л. Теория речевой коммуникации и грамматика диалога./ Коммуникативные стратегии культуры и гуманитарной технологии: Научнометодические материалы. /Л.Л.Фёдорова. – СПб: ООО «Книжный Дом», 2007. - С. 103-135.

¹¹⁴ Tom Hutchinson, Alan Waters.1987.English for Specific Purposes.Cambridge University Press:Scotland , page 7

qiladigan holatlar bilan to‘qnashganda, ular shokka tushishi mumkin. Bu holat natijasida ular o‘rganayotgan til sohiblarini g‘alati, madaniyatsiz deb qabul qilishlari ehtimoldan holi emas”¹¹⁵.

Tillarning o‘zaro farqlari faqat har xil tilda gapirishda emas, balki xalqning kundalik odatlari, odob-axloqi va turmush tarzida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chet tilini egallah milliy madaniyatni anglash, o‘sha xalqning mentalitetini tushunish va o‘ziga xos muloqot xatti-harakatlariga tayyorligi bilan chambarchas bog‘liq. Yuqorida ko‘rsatilgan barcha omillar – til bilimlari va madaniyatshunoslik bilimlari – agar talabalarga nutqiy va nutqdan tashqari xatti-harakat ko‘nikmalarini berilmasa, yetarli samara bermaydi.

III. NATIJALAR

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim riojlanishidagi tendensiya-larning o‘zgarishi, oliy ta’limda chet tillarini o‘qitish tizimini ham qayta ko‘rib chiqishga majbur etmoqda. Ayniqsa, xalqaro aloqa vositasi maqomini XX asr boshida olgan ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirish zaruriyatini yaqqol namoyon qilmoqda. Chet tilini bilish endilikda oddiy o‘quv predmetini bilish emas balki shaxsning kasbiy rivojlanishi va o‘zini namoyon qilish uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu ayniqsa nofilologik yo‘nalishda ta’lim olayotgan talabalarga taaluqlidir.

Ta’lim paradigmasini o‘zgarishi, raqamli pedagogik texnologiyalar rivoji innovatsion ta’lim modeliga o‘tish natijasida shaxsiy salohiyatni rivojlantirish, ta’lim jarayonini talabalar ehtiyoji va manfaatlariga moslashtirish o‘zini –o‘zi namoyon qilish imkoniyatlarini yaratib berishni talab qilmoqda. Nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida chet tillarini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida darsning tashkil qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi¹¹⁶. Bu yondashuv quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. Talabalar yoshiga oid va individual xususiyatlarini, ehtiyojlarini inobatga olish;
2. Ta’limda differensiasiya va individuallashtirish tamoyillariga tayanish;
3. Talabalarni tanlov vaziyatiga qo‘yish;
4. Darajali o‘qitishda o‘quv materiallari va faoliyat turlarini shunday tanlashki, ular talabaning maqsad qo‘yishiga va unga erishish darajasini belgilashiga xizmat qilsin;
5. Talabalarning kasbiy qiziqishlarini hisobga olish;
6. Talabaning shaxsiy rivoji uchun zarur bo‘lgan integrativ-kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan bilim darajasiga oid talablarni shakllantirish, bu yerda bilimdan ko‘ra faoliyat komponenti ustun bo‘ladi.

Biroq, talabalar yosh xususiyatlarini chuqur va puxta hisobga olgan holda ishlansa, yuqoridagi bandlarning birinchisini inobatga olishning o‘ziyoq qolgan bandlarni ham tabiiy tarzda o‘z ichiga oladi.

Chet tillarini oliy ta’lim tizimida o‘qitilishi talabalarning o‘z ustida ishslash va mustaqil bilim olish ko‘nikmasini rivojlantirish bilan birga uning bilim olish jarayonida

¹¹⁵ Revers, W. Teaching foreign language skills. / W.Revers. – Chicago, London. – The University of Chicago press, 1981.

¹¹⁶ Современные направления в методиче обучения иностранным языкам: учебное пособие /Под ред. Е.И. Пассова, Е.С. Кузнецовой . – Воронеж:НОУ «Интерлингва».ю 2002. – 40 с. (серия «Методика обучения иностранны языкам», №22)

tezroq natija qayd etishiga imkon beradi. Karl Neys yozadi: "Kattalar mantiqiy fikrlash va xulosa chiqarish qobiliyatiga bolalarga nisbatan ancha ko'proq egadirlar. Bolalar eslab qolishni yoqtirmaydilar va tez muvaffaqiyat kutishadi"¹¹⁷.

U shuningdek, katta yoshdagilarning o'qishga ongli yondashuvi, o'zidan katta talab qo'yishi, va o'qituvchidan ham yuqori sifat kutishini e'tirof etadi. Bolalar esa maktabga borishga majburdirlar, kattalar esa buni ongli ravishda tanlaydilar. Kattalar bilimni boshqacha qabul qilishadi — ularda iroda, barqarorlik, tahlil qilish qobiliyati, amaliy tajriba va til bilimlari mavjud bo'ladi. Bolalar esa tinglab eslab qolish, taqlid qilish, fonetik moslashuvchanlik kabi jihatlar bilan ajralib turadi. Bu farqlar kattalarda kuchli xotira, qat'iyat bilan qoplanadi.

Talabalar odatda chet tilini o'rganishga jiddiy qaraydilar, chunki ular ish jarayonida, xorijiy hujjatlar bilan ishlashda, safarlarda, xorijiy hamkorlar bilan muloqotda ushbu til kerak bo'lishini anglaydilar. Shuningdek, oliy ta'limdag'i o'qituvchining ishi, maktab o'qituvchisiga qaraganda, kattalar mantiqiy fikrlashga ega bo'lgani uchun nisbatan yengilroq. Biroq, cheklangan dars soatlari, mustaqil ishning yetarli darajada tashkil qilinmasligi, va metodik yondashuvdagi kamchiliklar bu ustunliklarni yo'qqa chiqaradi.

Oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish jarayonida o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi orqali samaradorlikka erishish mumkin.

- Ta'lim materiallarini siqilgan, mazmunli shaklda yetkazishi;
- Minimal zarur lug'aviy va grammatik materialni tanlashi;
- Talabalarning barcha qatlamlarini faol ishtirokga jalb etishi kerak bo'ladi.

Shuningdek, o'quv jarayonida talabani doimiy ravishda maqsad qo'yishga jalb qilish zarur. Har bir bosqichda talaba nimalarga erishishi mumkinligini tushunib borishi lozim. Bu yetuk yoshdagi shaxsning reallikka asoslangan maqsadlari bilan bog'liq. Grammatika materiallari ixcham va aniq, matnlar esa kattalar uchun dolzarb bo'lishi kerak. Talabalar faqat umumiyl maqsadni emas, balki har bir topshiriqning real amaliy natijasini ko'rishni istaydilar: masalan, oddiy muloqotni olib borish yoki kasbiy matnni o'qish imkoniyati.

Talabalar odatda o'z o'quv materiallarini tanqidiy ko'z bilan tahlil qiladilar. Ular kasbiy faoliyatiga tegishli, amaliy foyda beruvchi materiallarni afzal ko'radilar. Chet tilini kam vaqt va kuch bilan egallashni xohlashadi, chunki asosiy e'tiborni mutaxassislik fanlariga qaratadilar. Natijada, ehtiyojlar va mavjud til bilimlari o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi.

Bu muammoni hal qilish uchun:

- Motivatsiyani hisobga olish,
- Til kompetensiyasini rivojlantirishga e'tibor qaratish,
- "Maxsus maqsadlar uchun til" (ESP) uslubini qo'llash,
- Talabalarning kasbiy sohasi asosida tematik materiallar tanlash kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu shaxsning o'ziga xosligini, didi, xulqi, ta'limga munosabatini hisobga olishdir. Har bir talabaga mos keluvchi o'z ta'lim strategiyasi mavjud.

¹¹⁷ NeijsKarel, Literacy primes, construction, evaluation and use, UNESCO, 1961, p.17.

Tadqiqotchilar E.S.Kuznetsova, Z.M.Biboletova, V.V.Kapilovalar ta'lim strategiyalarini quyidagicha tasniflaydilar:

- Xotiraga asoslangan strategiyalar
- Kognitiv strategiyalar
- Kompensator strategiyalar
- Metakognitiv, affektiv, ijtimoiy yordamchi strategiyalar¹¹⁸
-

IV. XULOSA

Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun chet tilini o'rganish – bu nafaqat umumiyl bilim egallash, balki ularning kelajakdag'i kasbiy faoliyatida samarali muloqot qilish, xalqaro hamkorlikda ishtirok etish va zamonaviy axborot makonida mustaqil faoliyat yuritish vositasi hamdir. Shuning uchun chet tilini o'qitishda bu toifa talabalarning kasbiy ehtiyojlari, motivatsiyasi va individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, maqsadli, amaliy va kommunikativ yondashuvga asoslangan metodikalarni qo'llash zarur. Til o'rgatish jarayoni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashganda, talabalar o'z bilimlarini nafaqat dars davomida, balki real hayotiy vaziyatlarda ham samarali qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent; O'zbekiston nashriyoti, 2017 .- B-22.
2. Татур, Ю.Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стандартов высшего профессионального образования: Материалы ко 2-му заседанию методол. семинара: авторская версия. М.: Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. 16 с.
3. Гришахова, Н.А. Компетентностный подход в обучении взрослых // Материалы к 3-му заседанию методологического семинара, 28 сент. 2004 г. / Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов. М., 2004. С. 16
4. Фёдорова, Л.Л. Теория речевой коммуникации и грамматика диалога./ Коммуникативные стратегии культуры и гуманитарной технологии: Научнометодические материалы. /Л.Л.Фёдорова. – СПб: ООО «Книжный Дом», 2007. - С. 103-135.
5. Tom Hutchinson, Alan Waters. 1987. English for Specific Purposes. Cambridge University Press:Scotland, page 7
6. Revers, W. Teaching foreign language skills. / W.Revers. – Chicago, London. – The University of Chicago press, 1981.
7. Современные направления в методиче обучения иностранным языкам: учебное пособие /Под ред. Е.И. Пассова, Е.С. Кузнецовой . – Воронеж:НОУ «Интерлингва».ю 2002. – 40 с. (серия «Методика обучения иностранными языкам», №22)

¹¹⁸ Лузнецова Е.С., Бим И.Л., Биболетова М.З., Щепилова А.В., В Копылова В.В. «Иностранный язык в системе школьного филологического образования» (Концепция), журнал «Иностранные языки в школе» №1 2009 г., стр.4-9

8. Neijs Karel, Literacy primes, construction, evaluation and use, UNESCO, 1961, p.17.
9. Лузнецова Е.С., Бим И.Л., Биболетова М.З., Щепилова А.В., В Копылова В.В. «Иностранный язык в системе школьного филологического образования» (Концепция), журнал «Иностранные языки в школе» №1 2009 г., стр..4-9
10. Sidikova Sh.Sh. Raqamli texnologiyalar orqali til o'rgatishning asosiy prinsiplari va metodologiyasi, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri. International Journal of Science and Technology ISSN 3030-3443 Volume 2, Issue 03, March 2025 – P 232-235
11. Sidikova Sh.Sh. Video darslar va interactive content: til o'rgatishda visual va audio vositalardan foydalanish. Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. Vol 7 №2 (2025). –B 115-117.
12. Beckett, G.H., Slater, T. The Project Framework: A Tool for Language, Content, and Skills Integration // *ELT Journal*. – 2005. – Vol. 59, No. 2. – P. 108–116.
– DOI: <https://doi.org/10.1093/eltj/cci024>